

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 22 - noyabr

418-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

Yer maydonini zaxiraga qaytarib olish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6243-sonli Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-apreldagi "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida «O'zbekistonning g'arbiy qismida ichimlik suvi ta'minoti tizimlarini rivojlantirish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4271-sonli qarori asosida, To'rtko'l tumani hokimligining 2023-yil 6-noyabrdagi 01-11/2423-sonli xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. To'rtko'l tumani hokimligining 2023-yil 6-noyabrdagi 01-11/2423-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2 To'rtko'l tumani "Atauba" OFY hududidagi To'rtko'l davlat o'rmon xo'jaligining egaligida bo'lgan 527q konturidagi 8,0 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq To'rtko'l tumani hokimligi zaxirasiga o'rnatilgan tartibda qaytarib olinsin.

3. Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) To'rtko'l tumani hokimligi zaxirasiga yer maydoni qaytarib olinishi munosabati bilan yer hisobotiga qonunchlikka muvofiq tegishli o'zgartirishlar kiritilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) To'rtko'l tumani hokimligi (R.Shamuratov) bilan birgalikta mazkur qaytarib olingan yer maydonlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil

9-apreldagi “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida «O‘zbekistonning g‘arbiy qismida ichimlik suvi ta’minoti tizimlarini rivojlantirish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4271-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida tabiiy suv tindirgish havzasini qurish uchun yer ajratish loyiha hujjatlarini qonunga muvofiq tayyorlash choralari ko‘rsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2023-yil 22-noyabrda
418-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Туямуюн сув тозалаш 1-насос стансиясига сув тиндиргич

№	Худуд номи	Ердан фойдаланувчи номи	Контур рақами	Объект номи	Жами ер майдони, га	шундан					Тупроқ балл бонитети
						Суғорилад иган ер мфйдон, га	Суғориладиг ан портов буз ерлар, га	Яйлол ва пичанзорл ар, га	Арик, зовур га	Бошқа ерлар, га	
Тўрткўл туман											
1	Ата уба ОФЙ	To'rtko'l davlat o'rmon xo'jaligi	572qism	Tuyamuyun suv tozalash 1-nasos stansiyasiga suv tindirgich	8,0					8,00	0
жами :					8,00					8,00	